



Kunduz IBODULLAYEVA,
O‘zbekiston Milliy universiteti kafedrasida o‘qituvchisi
E-mail: k.ibodullayeva1996@gmail.com

DSc, professor S.Zokirova taqrizi asosida

INTERTEXTUALITY IN SCIENTIFIC DISCOURSE (EXAMPLE OF PHILOLOGICAL ARTICLES IN UZBEK)

Annotation

Intertextuality analyzes the text as a whole, where texts originating from different discourses intersect and are arranged. Studying the phenomenon of intertextuality in scientific discourse is considered one of the important issues facing linguistics. This article analyzes issues related to the reflection of intertextuality in scientific discourse. The study of the theory of intertextuality in linguistics, its characteristics, types and means of creating intertextuality are thoroughly analyzed on the example of scientific articles in the field of philology.

Key words: Scientific discourse, discursive analysis, category of intertextuality, text linguistics, discursive approach, intertextual communication, communicative approach, cognitive-discursive paradigm, academic speech, scientific text.

ИНТЕРТЕКСТУАЛЬНОСТЬ В НАУЧНОМ ДИСКУРСЕ (НА ПРИМЕРЕ ФИЛОЛОГИЧЕСКИХ СТАТЕЙ НА УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ)

Аннотация

Интертекстуальность анализирует текст в целом, где пересекаются и компонуются тексты, происходящие из разных дискурсов. Исследование феномена интертекстуальности в научном дискурсе считается одним из важных вопросов, стоящих перед лингвистикой. В данной статье анализируются вопросы, связанные с отражением интертекстуальности в научном дискурсе. Исследование теории интертекстуальности в лингвистике, ее характеристики, виды и средства создания интертекстуальности подробно анализируются на примере научных статей в области филологии.

Ключевые слова: Научный дискурс, дискурсивный анализ, категория интертекстуальности, лингвистика текста, дискурсивный подход, интертекстуальная коммуникация, коммуникативный подход, когнитивно-дискурсивная парадигма, академическая речь, научный текст.

ILMIY DISKURSDA INTERTEKSTUALLIK (O‘ZBEKCHA FILOLOGIK MAQOLALAR MISOLIDA)

Annotatsiya

Intertekstuallik matnini umumiy jihatdan tahlil qiladi va bu yerda turli xil nutqlardan kelib chiqadigan matnlar kesishadi va tartibga solinadi. Ilmiy diskursda intertekstuallik hodisasini o‘rganish tilshunoslik oldida turgan muhim masalalardan biri sanaladi. Ushbu maqolada ilmiy diskursdagi intertekstuallikni aks ettirish bilan bog‘liq masalalar tahlil qilingan. Intertekstuallik nazariyasining tilshunoslikda o‘rganilishi, xususiyatlari, turlari va intertekstuallikni yuzaga chiqaruvchi vositalar filologiya sohasiga oid ilmiy maqolalar misolida atroflicha tahlil qilingan

Kalit so‘zlar: Ilmiy diskurs, diskursiv tahlil, intertekstuallik kategoriyasi, matn tilshunosligi, diskursiv yondashuv, matnlararo aloqa, kommunikativ yondashuv, kognitiv-diskursiv paradigma, akademik nutq, ilmiy matn.

Kirish. Bugungi kunda jahon tilshunoslikda rivojlanib borayotgan antroposentrik paradigmaga ko‘ra, insonning tafakkuri, tashqi olamni idrok etishi til bilan bevosita bog‘liqligi natijasida kognitiv tilshunoslik, sotsiolingvistika, lingvokulturologiya, pragmatlingvistika kabi yo‘nalishlarni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish ortib bormoqda. Shu jumladan, matn turlari, diskurs va matn munosabati, matn yaratilishi va qabul qilinishi, matnning tuzilishi, tarkibi, uning lingvistik xususiyatlari kabi masalalar ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu masalalarga doir ko‘plab tadqiqotlar yaratilgani holda, endi bevosita, diskurs tahlili va turlari, diskursiv tahlil doirasida intertekstuallikning ahamiyati haqidagi ishlarga ham ehtiyoj tug‘ilmoqda.

Til dunyoni bilishning birlamchi vositasi hisoblanar ekan, diskurs ham ayni shu ma‘noda muhim masala sifatida yashovchan va e‘tibortalab tadqiqot obyekti sanaladi. Shu bois diskurs masalasiga alohida e‘tibor qaratish va uning mohiyatini anglab yetish lozim bo‘ladi.


Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘tgan o‘n yilliklar mobaynida “diskurs” terminiga ko‘p murojat qilindi va bu yuzasidan xilma-xil munosabatlar bildirildi. Diskurs” termini tilshunoslikda o‘tgan asrning 50-yillarida birinchi marta tilga olina boshlagani ma‘lum, dastlab bu ibora amerikalik tilshunos Z.Xarrisning 1952-yilda nashr etilgan “Diskurs tahlili” deb nomlangan maqolasida ishlatilgan [1].

Diskurs tadqiqotlari doirasida qilingan ishlardagi talqin va izohlarning xilma-xilligi bu tushunchaning ko‘p qirrali hamda keng qamrovli ekanligini ko‘rsatadi. Zamonaviy tilshunoslikning yangi yo‘nalishlari bo‘lgan kompyuter lingvistikasi va korpus lingvistikasida ham diskurs tahlillar katta ahamiyatga ega. Filologiya fanlari doktori, professor N. Abduraxmonova “kompyuter lingvistikasi” darsligida diskursni quyidagicha ta‘riflaydi. “Ma‘lumot almashinish yoki uzatish uchun bir yoki bir nechta kishilar tomonidan ketma-ketlikda tuzilgan gaplarning kengaytirilgan shakli” [2].

Ko‘plab tadqiqotlarda diskurs, avvalo, ifodalaniş xususiyatiga ko‘ra, ikki turga: o‘g‘zaki va yozma kabi boshlang‘ich guruhlariga bo‘linishi aytib o‘tilgan. Diskurs tahlili doirasida qilingan ishlarda matn va diskurs aloqasida farqlanishi lozim bo‘lgan jihatlar bilan birgalikda, bu tushunchalarni ziddiyatli hodisalar sifatida o‘rganish ma‘qul emasligi ta‘kidlanadi. Zero, diskurs bir tamondan til va jamiyat o‘rtasidagi aloqadorlikni o‘rganar ekan, biz tadqiq qilayotgan til hodisalariga bevosita daxldorligi bilan e‘tiborni tortadi. Negaki diskursiv faoliyat nutq yaratish va uni idrok etish jarayoni hisoblanadi. Jahon tilshunosligida intertekstuallik masalasi yuzasidan bir qancha tadqiqotlar amalga oshirilgan bo‘lib, bu izlanishlarda intertekstuallikning xususiyati, turlari va intertekstuallikni yuzaga chiqaruvchi vositalar atroflicha o‘rganilgan. Intertekstuallik fransuz olimasi Y.Kristeva tomonidan 1967-yilda ilmiy

muomalaga kiritildi. Uning “Baxtin, soʻz dialog va roman” nomli ilmiy risolasida ilk bor bu termin qoʻllangan. Olima intertekstuallik hodisasi asosan ilmiy va badiiy matnda uchrashini taʼkidlab, koʻproq badiiy matndagi intertekstuallik tamoyiliga urgʻu bergan [3]. Zamonaviy dunyoda ilm-fanning oʻziga xos oʻrni tufayli ilmiy diskurs maxsus lingvistik tahlil uchun shubhasiz qiziqish uygʻotadi. Intertekstuallikning asosi matn qismlarining bir-biri bilan, bir muallifning matnlari boshqa

mualliflar matnlari bilan, shuningdek, pretsedent hodisalar bilan matnning koʻp oʻlchovli bogʻlanishidir. Yangi matn va oldingi matn oʻrtasida shaxsning butun madaniy va tarixiy tajribasini oʻz ichiga olgan umumiy matnlararo makon mavjud. Demak, barcha yaratilgan matnlar, bir tomondan madaniy kontekst, adabiy anʼana bilan bogʻliq boʻlsa, ikkinchi tomondan intertekstdir. Matn va diskurs tushunchalari oʻrtasidagi munosabatni quyidagi chizma orqali ifodalashga harakat qildik.



1-chizma “Matn-diskurs” munosabati modeli (ilmiy maqolalar asosida)

I bosqich: muallif (maʼruzachi) oʻzining ilmiy ishi matnini yaratadi. Shu bilan birga u allaqachon yaratilgan matnlarga (matn1, matn2, matn3 va boshqa) yoki boshqa mualliflarning matnlariga tayanadi. Shuningdek muallif oʻzi yaratgan matnlarga ham murojat qilishi mumkin.

II-III bosqich: Yozma matnning nutq mahsulotiga aylantirish bosqichi, ham ekstralingvistik omillar, ham adresat (tinglovchilar) taʼsiri bilan birga keladi. Bu bosqich nutqning shakllanish bosqichi hisoblanadi.

IV bosqich. Yozma nutqni tuzatish va yangi matnga aylantirib oʻquvchi va tinglovchilarga taqdim qilish.

Ilmiy nutqda matnlararo aloqalar ilmiy axborotni ishlab chiqarish, uzatish va saqlashning mavjud tizimida alohida ahamiyatga ega, ammo bizning maʼlumotlarimizga koʻra, ilmiy nutqda intertekstuallikni maxsus oʻrganish amalga oshirilmagan. Ilmiy muloqotning eng muhim janrlaridan biri – ilmiy maqolaning tizimli xususiyatlari ham yoritilmagan.

Rossiya xalqlar doʻstligi universiteti dotsenti PhD Svetlana Dmitrichenkova va Elena Dolzhich “Ilmiy matnlardagi intertekstuallik” nomli maqolasida intertekstualizm muammolarini adabiy va lingvistik nuqtayi nazardan oʻrganishga boʻlgan nazariy yondashuvlarni eʼtirof etadi [4].

Soʻnggi yillarda intertekstualizm turli kommunikativ sohalardagi matnlarda, xususan, rus, ingliz, nemis, ispan kabi turli tillarda ilmiy kommunikatsiyadagi intertekstualizm boʻyicha tadqiqotlar olib borildi. (Bazhenova, 2001; Chernyavskaya, 2009; Litvinenko, 2008; Luzon, 1997; Marinkovich, 2010)

Rus tilshunosligida intertekstuallik muammosi Mixaylova Elena Vladimirovnaning tadqiqotlarida uchraydi. U “Ilmiy nutqda intertekstuallik: maqolalar asosida” nomli nomzodlik dissertatsiyasida ilmiy diskursda intertekstuallik kategoriyasi va uni oʻrganishga boʻlgan yondashuvlar, intertekstuallik nazariyasining rivojlanish bosqichlari, matnlararo aloqa turlari, intertekstuallikning vazifalari va xususiyatlari haqida ilmiy maqolalar tahliliga asoslanib maʼlumot bergan [5]. Elena Anatolyevna esa ispan ilmiy diskursidagi intertekstuallik tadqiqiga bagʻishlangan nomzodlik dissertatsiyasida tabiiy fanlar boʻyicha maqolalar va dissertatsiyalar asosida intertekstuallik hodisalarini tahlilga tortgan. Intertekstuallikni tor va keng tushuncha sifatida oʻrganib, intertekstuallik va interdiskursivlik hodisalarining farqi va ilmiy diskursda gorizont intertekstuallik, vertikal intertekstuallik va ularni amalga oshirish vositalariga urgʻu bergan [6].

Oʻzbek tilshunosligida intertekstuallik muammosi dastlab M. Yoʻldoshevning tadqiqotlarida uchraydi. Olim tadqiqotlarida intertekstuallikni badiiy matnning tarkiblanishidagi muhim ahamiyatga ega vosita ekanligini taʼkidlagan [7]. D. Xudoyberganova badiiy matnning antroposentrik tadqiqiga bagʻishlangan ilmiy ishlarida badiiy matnlarda uchraydigan intertekstuallikni lingvokulturologik jihatdan tahlil qilgan [8]. D. Andaniyazova badiiy matn tadqiqiga bagʻishlangan ishlarida intertekstuallikning bir turi boʻlgan allyuziya va uning xususiyatlarini yoritib bergan [9].

Intertekstuallik masalasi yuzasidan oʻzbek tilshunosligida ilmiy izlanishlar olib borgan tadqiqotchilardan yana biri M. Xomidova boʻlib, u badiiy matn tadqiqiga bagʻishlangan koʻpgina maqolalarida intertekstuallik hodisasiga alohida urgʻu bergan. M. Xomidova “Badiiy matn pertsepsiyasida intertekstuallik” nomli doktorlik dissertatsiyasida oʻzbek badiiy matnlarida uchraydigan intertekstuallikning birliklarning manbalarini aniqlagan va ular asosida intertekstuallikni shakli jihatdan turlarga ajratgan, badiiy matn pertsepsiyasida epigraf, sarlavha, allyuziya, iqtibos kabi intertekst turlarining roʻli va ahamiyatini turli xil misollar orqali isbotlab bergan va badiiy matnlardan olingan misollar yordamida asoslagan [3].

Tahlil va natijalar. Akademik diskursda intertekstualizm mazmun darajasida ilmiy matn yaratishning universal tamoyili sifatida namoyon boʻladi. Chunki har qanday matn retrospektiv va istiqbolij jihatdan boshqa tadqiqotlar bilan bogʻlangan. Bilimning davomiyligi qonuniga koʻra, har bir yangi ilmiy matn bilimlarni saqlash va ushbu bilimlarni ishlab chiqaradigan insonlar oʻrtasida aloqani taʼminlaydigan murakkab mexanizm bilan bogʻliqdir. Matnning talqini boshqa matnlar haqidagi bilimga bogʻliq. Intertekstualizm oʻquvchining xotirasida saqlanib qolgan bilimlarni faollashtiradi, shu sababli matn qabul qiluvchilar yangi matnlarni tushunish uchun oldindan maʼlumotga ega boʻlishlari kerak.

Ilmiy diskursda intertekstuallik yangi ilmiy bilimlar doirasida mavjud bilimlarni aniqlashga qodir boʻlgan belgilar tizimiga ega. Shuni taʼkidlash lozimki, akademik diskurs ochiq koʻrinadigan markerlardan foydalanishni talab qiladi.

Ilmiy matnda intertekstual ifodalanish usullari quyidagilardan iborat:

1. Intertekstual kiritmalar, bu usulda olingan parchalar yangi matn tuzilmasi yuzasida aks ettiriladi: toʻliq yoki qisqartirilgan iqtiboslar, bilvosita uslub, “boshqalar soʻzlari” yoki soʻzlar birikmasi kiritiladi. Til va adabiyot taʼlimi jurnalidan

olingan maqolalar orqali intertekstuallik hodisasini tahlil qilishga harakat qildik. Masalan: Ulug' avar eli shoiri Rasul Hamzatov aytganidek: „Ba'zilar ulkan mavzularni qalamga olib, o'zim ham ulkan yozuvchi bo'ldim deb o'ylashadi. Lekin ular eng ulug' narsa eng sodda narsada ekanini tushunmaydilar. Ulug' odam yirik narsani ham, kichik narsani ham ko'ra oladi. Eng mayda narsada eng ulkan narsalar yotganini ko'ra biladi va olamlarga ko'rsatadi“ [10].

Abdulla Qahhor hikoyalarda badiiy detallarning ifodalanishi nomli ushbu maqolada muallif A.Qahhor hikoyalarning o'ziga xos uslubi haqida fikr yutirir ekan, R. Hamzatovning yuqoridagi fikrlarini keltirib o'tadi. Muallif fikrini davom ettirib shunday yozadi: „Ana shunday ulug' yozuvchi Abdulla Qahhor hikoyalari sodda va qisqa bo'lsa-da, anglami keng asarlardir. Muallif yangi matn tuzilmasida intertekstual kiritmalar, qisqartirilgan iqtiboslardan foydalandi. O'zining fikrini bayon qilish davomida oldin yaratilgan matnga murojat qildi. Yana bir misolga e'tibor qarataylik:

Adabiyotshunos olim Dilmurod Quronovning fikricha: „... Detal asarda tasvirlangan obrazning kichik bir qismi (ya'ni, u hamisha predmetlilikni ko'zda tutadi), detallarning birikuv natijasida o'sha obraz ko'z oldimda butun holda namoyon bo'ladi. Badiiy detalning ortida ma'lum bir realiya mavjud: maishiy turmush yoki joy tafsilotlari, portret chizgilari va sh.k. Shuningdek, personajning imo-ishoralari (jest), tana holati (poza), xatti-harakati, gap-so'zlari ham detal sanaladi, ular hammasi birgalikda konkret inson obrazini gavdalaniradi“ [1] [11]. Muallif bu maqolada Sh. Xolmirzayev ijodida detalning o'rnini ifodalash maqsadida D. Quronovning detal haqida bildirgan fikrlariga murojat qilyapdi va qavs ichida iqtiboslik keltirdi. Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatida Quronov D. „Adabiyotshunoslikka kirish“. – Toshkent: Meros, 2004. 76–77-betlar tarzida olingan manba ko'rstilyapdi.

Iqtibos qilingan parchalarni qo'shtirnoq ichida keltirgan. Iqtibos qilingan parchalar odatda qo'shtirnoq bilan yoki shrift o'zgarishi (kursiv) orqali belgilanadi.

2. Intertekstual kiritmalar, bu usulda ma'lumot manbalariga murojaat qilinadi, lekin olingan parchalar yangi matn tarkibida qayta aks ettirilmaydi. Bunda o'quvchini ma'lumot manbalariga yo'naltiruvchi formal markerlar ishlatiladi: qavslar, kvadrat qavslar, turli ro'yxat belgilar, raqamlar.

Z. Rajabovanning frazeologik birliklar o'quv lug'atini yaratishning lingvistik jihatlarini ochib berishga qaratilgan tadqiqotida o'quv lug'atchiligida o'quv frazeologik lug'atga so'z tanlashda ilmiy asoslanganligi, frazemaning lingvistik, didaktik, metodik jihatlarini lug'atga moslashtirish, lug'at samaradorligini oshirish uchun bugungi kun talablariga mosligini ta'minlashga qaratilgan nazariyalarni ochib berishga harakat qilingan [12].

Yana bir misolda intertekstuallik o'quvchilarni olingan ma'lumot manbalariga yo'naltirish maqsadida kvadrat qavslardan foydalanilgan.

Yana bir misolga e'tibor qarataylik: T.G. Dobrosklonskaya jurnalistik matnlarga lingvistik tadqiqotlar uchun empirik material sifatida, agar badiiy adabiyot matnlari o'ziga xos „yuqori san'at“, voqelikni aks ettirishning asosiy usuli bo'lsa, ommaviy axborot vositalarining matnlari har qanday voqeani, hayotning har qanday harakatini bir zumda aks ettiruvchi, ko'proq tasviriy uslubdir“ deydi [4,20] [13].

Xulosa va takliflar. Intertekstuallik dunyo va o'zbek ilmfanida o'rganilishi davom etayotgan tadqiqot obyektlaridan biri sifatida dolzarb mavzulardan bo'lib qolmoqda va bu matn tilshunosligi, lingvokulturologiya, psixolingvistika pragmalolingvistika kabi amaliy lingvistik yo'nalishlari uchun zarur ilmiy natijalarni berishi shubhasiz. Ilmiy diskursdagi intertekstuallikning bir qator xususiyatlari ushbu maqolada tahlil qilindi. Tadqiqot predmeti sifatida o'zbek filologiyasiga oid ilmiy maqolalar tahlilga tortildi. Tadqiqotning metodologik asosi zamonaviy tilshunoslik, diskursiv va kommunikativ yondashuvlarga olib keladi hamda matn tilshunosligi, psixolingvistika, pragmalolingvistika, kabi amaliy tilshunoslik yo'nalishlari uchun zarur ilmiy natijalar beradi.

ADABIYOTLAR

1. Shonazarova D. Intervyu matnlarining diskursiv tahlili. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya aytoreferati. - Toshkent, 2024. 10 b.
2. Abduraxmonova N. Kompyuter lingvistikasi (darslik), Tashkent Nodirabegim, 2021. 141b
3. Homidova. M. Badiiy matn pertsepsiyasida intertekstuallik. Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya aytoreferati. - Toshkent, 2021. 12 b.
4. Svetlana Dmitrichenkova, PhD, Associate Prof. Elena Dolzhich, PhD, Associate Prof "Intertextuality in Scientific Texts" European Scientific Journal July 2017 /SPECIAL/ edition ISSN: 1857 – 7881 (Print) e - ISSN 1857- 7431
5. Михайлова, Елена Владимировна. Интертекстуальность в научном дискурсе: На материале статей. автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 1999. – С.16.
6. Елена Анатольевна. Интертекстуальные связи в испанском научном дискурсе: на материале естественнонаучных статей и диссертаций. автореф. дис. канд. филол. наук. – М., 2011. – С.9.
7. Йўлдошев М. Бадий матнинг лингвопоэтик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 129
8. Худойберганова Д. Бадий матнинг антропоцентрик тадқиқи. Фил. фан. доктори илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. – Т., 2010. – Б. 129-154.
9. Анданиёзова Д. Бадий матнда ономастик бирликлар лингвопоэтикasi. Филология фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси аytoreферати. – Т., 2017. – Б. 48.
10. Mulkamonova. S. Abdulla Qahhor hikoyalarda badiiy detallarning ifodalanishi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Т., 2023. – № 2.
11. Sultonqulova Sh. Shukur Xolmirzayev ijodida detalning o'rnini. Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Т., 2023. – № 2. 17-b
12. Абдурахмонова, Н., & Бойсариева, С. (2023). Tabiiy tilni qayta ishlashda (nlp) okkazonalizmlarning morfem tahlili. международный журнал искусство слова, 6(3).
13. Xodjayorov M. Zamonaviy mediamatnlarning lingvistik tadqiqi. Til va adabiyot ta'limi jurnali. – Т., 2023. – № 10. 86-b
14. Mengliev, D., Barakhnin, V., & Abdurakhmonova, N. (2021). Development of intellectual web system for morph analyzing of uzbek words. Applied Sciences, 11(19), 9117.
15. Abdurakhmonova, N. (2016). The bases of automatic morphological analysis for machine translation. Izvestiya Kyrgyzskogo gosudarstvennogo tekhnicheskogo universiteta, 2(38), 12-7.